YAQIN SHARQDA QUROLLANISH VA XAVFSIZLIK MASALASI

Muxtorov Mirzohidjon
TDSHU 2-bosqich magisrtanti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yaqin Sharq mintaqasida xavfsizlikni ta'minlash va unga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida qurollanish jarayonining o'rni tahlil qilinadi. Mintaqadagi qurollanish darajasining oshishi davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchsizlik, mavjud siyosiy va harbiy qarama-qarshiliklar hamda xavfsizlik muhitining beqarorligi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda qurollanishning mintaqadagi nizolarning bevosita sababi bo'lishi bilan bir qatorda, uning oqibatlari natijasida shakllanadigan keskin va beqaror muhit siyosiy qaror qabul qiluvchilarning xavfsizlik haqidagi tasavvurlariga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritiladi. Shuningdek, qurollanish poygasi, harbiy salohiyatning ortishi va davlatlar o'rtasidagi strategik raqobatning Yaqin Sharqdagi xavfsizlik tizimiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada mintaqadagi xavfsizlik muammolarini tushuntirishda qurollanish omilining ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Yaqin Sharq, mintaqaviy xavfsizlik, qurollanish, qurollanish poygasi, harbiy salohiyat, xavfsizlik muhiti, strategik raqobat, siyosiy beqarorlik.*

Abstract. *This article analyzes the role of arms buildup as one of the key factors affecting security in the Middle East. The growing level of armament in the region is examined in relation to mutual distrust among states, existing political and military confrontations, and the instability of the regional security environment. The study highlights that, although arms buildup is not always the direct cause of conflicts in the region, the tense and unstable environment created by its consequences influences the perceptions and decision-making processes of political leaders. The article also examines the impact of the arms race, the expansion of*

military capabilities, and strategic competition among states on the regional security system of the Middle East. The study emphasizes the significance of the armament factor in explaining the major security challenges facing the region.

Keywords: *Middle East, regional security, armament, arms race, military capabilities, security environment, strategic competition, political instability.*

Kirish. Yaqin Sharq mintaqasi xalqaro xavfsizlik tizimida eng murakkab va beqaror hududlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur mintaqada uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan qurolli mojarolar, siyosiy qarama-qarshiliklar, davlatlar o‘rtasidagi strategik raqobat, terrorizm, geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvi hamda harbiy-siyosiy ittifoqlarning shakllanishi mintaqaviy xavfsizlik muhitiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, Yaqin Sharq xavfsizlik tizimini tahlil qilishda davlatlarning harbiy salohiyati va qurollanish jarayonlarini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.Mintaqadagi davlatlarning zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnologiyalarga bo‘lgan ehtiyojining ortib borishi xavfsizlik masalasining yanada murakkablashishiga olib kelmoqda. Bir tomondan, davlatlar o‘z milliy xavfsizligini ta’minlash, hududiy yaxlitligini himoya qilish va tashqi tahdidlarga qarshi turish maqsadida harbiy salohiyatini kuchaytirishga intiladi. Ikkinchi tomondan esa, bir davlatning harbiy imkoniyatlarini oshirishi boshqa davlatlar tomonidan tahdid sifatida qabul qilinib, ularning ham qurollanishni kuchaytirishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada o‘zaro ishonchsizlik va xavfsizlik dilemmasi chuqurlashib,[1] mintaqada qurollanish poygasining shakllanishi uchun sharoit yuzaga keladi.Yaqin Sharqdagi qurollanish jarayonini faqat harbiy ko‘rsatkichlar orqali baholash yetarli emas. Mazkur jarayon siyosiy, iqtisodiy, geostrategik va psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Davlatlarning xavfsizlik haqidagi tasavvurlari, tashqi siyosiy maqsadlari, ittifoqchilik munosabatlari va mintaqadagi kuchlar nisbatining o‘zgarishi

[1] Herz J. H. Idealist Internationalism and the Security Dilemma // World Politics. – 1950. – Vol. 2, No. 2. – P. 157–180; Jervis R. Cooperation Under the Security Dilemma // World Politics. – 1978. – Vol. 30, No. 2. – P. 167–214.

qurollanish siyosatining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli qurollanish mintaqadagi mavjud nizolarning har doim ham bevosita sababi bo‘lmasa-da, ularning davomiyligi va keskinligiga, shuningdek, xavfsizlik muhitining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, Yaqin Sharqda xavfsizlikni ta’minlash masalasi nafaqat mintaqa davlatlari, balki xalqaro hamjamiyat uchun ham strategik ahamiyatga ega. Mintaqadagi harbiy raqobat va qurollanish dinamikasi xalqaro tinchlik va xavfsizlikka, energetik xavfsizlikka, xalqaro transport yo‘llarining barqarorligiga hamda global geosiyosiy jarayonlarga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli Yaqin Sharqdagi qurollanish jarayonlarini tahlil qilish mintaqaviy xavfsizlikning asosiy muammolarini chuqurroq anglash imkonini beradi.Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Yaqin Sharq mintaqasida qurollanish jarayonining shakllanishi va rivojlanishini, uning davlatlar o‘rtasidagi strategik raqobat hamda mintaqaviy xavfsizlik muhitiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida qurollanish poygasining asosiy omillari, harbiy salohiyatning oshishi natijasida yuzaga keladigan xavfsizlik muammolari va ushbu jarayonning mintaqaviy barqarorlikka ta’siri o‘rganiladi.

Asosiy qism. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab davlatlari o‘zlarining mintaqaviy va global maqomini saqlab qolish yoki uni yanada yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida kimyoviy, biologik, yadroviy hamda konvensional qurollarni ishlab chiqarish yoki ularni xorijdan xarid qilish yo‘lidan bormoqda. Shubhasiz, mazkur qurollanish poygasining eng muhim sabablaridan biri davlatlarning bir-birini potensial tahdid sifatida qabul qilishi bilan bog‘liqdir.Jadal sur’atlarda globallashib borayotgan zamonaviy dunyoda xavfsizlik paradoksi asosida shakllanayotgan xavfsizlik va tahdid o‘rtasidagi dilemma davlatlarni mudofaa xarajatlarini izchil ravishda oshirishga majbur qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, dunyoning turli mintaqalarida, ayniqsa, o‘zaro chegaradosh davlatlar bir-birini xavf

manbai sifatida baholab, yalpi milliy daromadlarining salmoqli qismini mudofaa sohasi va harbiy-sanoat kompleksini rivojlantirishga yo‘naltirmoqda.

Mintaqalar kesimida qurollanish poygasi eng yaqqol namoyon bo‘layotgan hududlardan biri Yaqin Sharq hisoblanadi. Mazkur mintaqada qurollanish jarayonining asosiy o‘choqlarini, bir tomondan, Isroil va uni o‘rab turgan arab davlatlari o‘rtasidagi xavfsizlik qarama-qarshiliklari, ikkinchi tomondan esa, Fors ko‘rfazi davlatlarining Eron tahdidi bilan bog‘liq xavfsizlik muammolari tashkil etadi.Yaqin Sharqdagi ushbu jarayon davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchsizlik, xavfsizlikka oid tahdidlarni turlicha talqin qilish va harbiy salohiyatni oshirishga intilish bilan chambarchas bog‘liqdir. Natijada bir davlatning o‘z xavfsizligini ta’minlash maqsadida amalga oshirayotgan harbiy kuchayishi boshqa davlatlar tomonidan tahdid sifatida qabul qilinib, ularning ham qurollanish darajasini oshirishiga sabab bo‘lmoqda. Shu tariqa, mintaqada o‘zaro bog‘liq bo‘lgan xavfsizlik dilemmasi va qurollanish poygasi shakllanmoqda.

Jahon siyosiy tarixida qurol-yarog‘ savdosi eng yuqori darajaga yetgan davr, shubhasiz, Sovuq urush davri hisoblanadi.Biroq 1980-yillarning oxirida Sovuq urushning yakunlanishi va undan keyingi jarayonda SSSRning parchalanishi global qurol-yarog‘ savdosiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada qurol-yarog‘ga bo‘lgan global talab sezilarli darajada kamaydi. Shu bilan birga, iqtisodiyoti qurol-yarog‘ savdosidan olinadigan daromadlarga ma’lum darajada bog‘liq bo‘lgan davlatlar tashqi savdo hajmining keskin pasayishiga duch keldi.Sovuq urush yakunlanganidan keyin qurol-yarog‘ savdosida o‘sish kuzatilgan yana bir muhim davr 1990-yillarda yuz bergan Ikkinchi Ko‘rfaz urushi bilan bog‘liq bo‘ldi. Mudofaa sanoatiga yo‘naltirilgan investitsiyalar 1987-yilda eng yuqori darajaga yetgan bo‘lsa-da, ushbu ko‘rsatkich 1997-yilgacha o‘sish tendensiyasini saqlab qoldi. Biroq 1997-yildan boshlab mudofaa sanoatiga yo‘naltirilgan investitsiyalar muntazam ravishda pasayib bordi.

Jahon global qurol-yarog‘ bozorida uzoq yillardan buyon AQSh va Rossiya o‘rtasida raqobat mavjud bo‘lib kelmoqda. Sovuq urush yillari davomida ushbu bozorning asosiy yo‘nalishlarini mazkur ikki davlatning siyosiy mafkurasi belgilab bergan bo‘lsa, bugungi kunda ularning global miqyosdagi hamkorlari va xaridorlari tarkibi o‘zgarib bormoqda. Bundan tashqari, AQSh va Rossiya bir-birining hamkorlari va qurol xaridorlarini o‘z tomoniga jalb etishga intilmoqda. Masalan, bir vaqtlar AQSh uchun qurol-yarog‘ savdosining muhim bozorlaridan biri hisoblangan Lotin Amerikasi davlatlari so‘nggi davrlarda Rossiya qurollariga qiziqish bildirmoqda. Boshqa tomondan, Sovuq urush davrida sobiq SSSRning muhim qurol xaridorlari bo‘lgan Yaqin Sharq davlatlari bugungi kunda AQShda ishlab chiqarilgan qurol-yarog‘larga tobora ko‘proq yo‘nalmoqda.

O‘zgarib borayotgan xalqaro tizim sharoitida qurol-yarog‘ savdosining rolini uchta asosiy omil belgilab beradi:

Birinchi omil — murakkab qurol tizimlarini ishlab chiqish va ishlab chiqarish xarajatlarining ortib borishi, shu bilan birga bunday qurollarni ishlab chiqarish imkoniyatlarining faqat iqtisodiy jihatdan rivojlangan va boy davlatlar bilan cheklanib qolishidir. 1950–1972-yillar oralig‘ida Uchinchi dunyo mamlakatlariga yetkazib berilgan yirik qurol-yarog‘larning qariyb 86 foizi atigi to‘rtta davlat — AQSh, Sovet Ittifoqi, Buyuk Britaniya va Fransiya tomonidan ta’minlangan.

Ikkinchi omil — qurol-yarog‘ eksportining asosan davlatlar tomonidan tartibga solinishidir. Xususan, harbiy mahsulotlarni eksport qilish davlatning tegishli ruxsatini talab etadi. Odatda hukumatlar mudofaa sanoati ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda qurol-yarog‘ eksporti bilan bog‘liq mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Shu sababli qurol-yarog‘ savdosi oddiy tijorat munosabatlaridan tashqari, davlatlarning tashqi siyosati va milliy xavfsizlik manfaatlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Uchinchi omil esa ikki yirik davlat — AQSh va Sovet Ittifoqining qurol-yarog‘ni bepul yoki nisbatan arzon narxlarda yetkazib berishi bilan izohlanadi.

Bunday siyosat rivojlanayotgan davlatlarning harbiy salohiyatini oshirishga imkon yaratgan va xalqaro qurol-yarog‘ bozoridagi raqobat hamda siyosiy ta’sirning kuchayishiga xizmat qilgan.

1980–1988-yillar oralig‘ida sakkiz yil davom etgan hamda juda katta miqdordagi insoniy talafotlar va iqtisodiy vayronagarchiliklarga sabab bo‘lgan Eron–Iroq urushi yakunlanganidan so‘ng, Iroq 1991-yilda Quvaytni anneksiya qilishga urinish amalga oshirdi. Biroq mazkur urinish AQSh boshchiligidagi xalqaro koalitsiya kuchlari tomonidan to‘xtatildi. 1990-yillar davomida xalqaro embargo ostida qolgan Iroq 2003-yilda AQSh tomonidan bosib olindi. Mazkur voqealar Yaqin Sharq mintaqasida yuqori darajadagi harbiy xarajatlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan muhim omillardan biri sifatida baholanadi.

2004–2008-yillar oralig‘ida Yaqin Sharq mintaqasida qurol-yarog‘ning eng yirik importchisi Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) bo‘lgan. Mintaqaga yetkazib berilgan qurol-yarog‘larning 34 foizini BAA xarid qilgan bo‘lsa, undan keyingi o‘rinlarni 22 foizlik ulush bilan Isroil va 14 foizlik ulush bilan Misr egallagan.[2] BAAning mazkur davrda qurol-yarog‘ importi bo‘yicha mintaqada yetakchi o‘ringa chiqishining asosiy sabablaridan biri sifatida AQShning BAA hududidan Yaqin Sharqdagi strategik va harbiy ta’sirini ta’minlash uchun foydalanishga intilishi ko‘rsatiladi. Shuningdek, mintaqada Eronning geosiyosiy ta’sirining kengayishini cheklash hamda Eronning mintaqadagi ustun mavqega ega bo‘lishining oldini olish AQShning mintaqaviy siyosatidagi muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lgan.

2013-yildan hozirgi davrgacha bo‘lgan davrda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqalarida mudofaa sanoatiga eng katta miqdorda xarajat qilgan davlatlar qatorida, avvalo, Saudiya Arabistoni, Isroil va Jazoir qayd etiladi. Ushbu davlatlar orasida Saudiya Arabistoni alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, 2013-yilda

[2] Wezeman P. D. Arms Transfers to the Middle East // SIPRI Background Paper. – Stockholm: SIPRI, 2009. – July. – P. 1–2.

mamlakatning mudofaa xarajatlari 67 milliard AQSh dollarini tashkil etib, Fransiya, Buyuk Britaniya va Germaniyani ortda qoldirgan hamda AQSh, Xitoy va Rossiyadan keyin dunyodagi mudofaa xarajatlari bo‘yicha to‘rtinchi davlatga aylangan.[3]Saudiya Arabistoni hukumatining yuqori darajadagi harbiy xarajatlarni amalga oshirishiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillardan biri 2003-yilda AQShning Iroqqa bostirib kirishi ortidan mintaqada yuzaga kelgan kuch bo‘shlig‘ va Eronning ushbu vaziyatdan foydalanib, o‘zining mintaqaviy ta’sirini kengaytirishga qaratilgan siyosati bilan bog‘liq. Xususan, Saudiya Arabistoniga qo‘shni bo‘lgan Yamanda Arab bahori jarayonlari ortidan shia mazhabiga mansub va Eron tomonidan qo‘llab-quvvatlangan husiylarning siyosiy va harbiy mavqei kuchayishi Saudiya Arabistoni rahbariyatida jiddiy xavotir uyg‘otgan. Natijada Saudiya hukumati mamlakatning mudofaa salohiyatini mustahkamlash va mintaqaviy xavfsizlikka oid tahdidlarga javob berish maqsadida harbiy xarajatlarini oshirgan. So‘nggi davrlarda, xususan, Arab bahori jarayonlari davomida Rossiyaning Yaqin Sharqqa qurol-yarog‘ eksporti kamayganini kuzatish mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri Rossiyaning mintaqadagi amaldagi siyosiy rejimlarni qo‘llab-quvvatlagani, hokimiyatga kelgan yangi hukumatlarning esa tashqi siyosatda AQSh, Xitoy va G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan hamkorlikni kuchaytirishga moyillik bildirgani bilan izohlanadi.Mazkur jarayon Rossiyani qurol-yarog‘ savdosi uchun muqobil bozorlarni izlashga undagan. Mintaqadagi siyosiy jarayonlar natijasida iqtisodiy va siyosiy zarar ko‘rganiga qaramay, Rossiya mavjud hukumatlarni qo‘llab-quvvatlashda davom etgan hamda Yaqin Sharq davlatlarining ichki ishlariga tashqi kuchlar tomonidan harbiy aralashuv amalga oshirilishiga qat’iy qarshi chiqqan.

Yaqin Sharq mintaqasining Usmonli imperiyasi hukmronligidan chiqib ketganidan to hozirgi kungacha siyosiy va iqtisodiy beqarorlik jarayonini boshdan kechirib kelgani ko‘zga tashlanadi. Bir necha asrlar davomida davom etib

[3] Perlo-Freeman S., Solmirano C. Trends in World Military Expenditure, 2013 // SIPRI Fact Sheet. – Stockholm: SIPRI, 2014. – April. – P. 2.

kelayotgan mazkur beqaror va muvozanatsiz holat mintaqaning o‘ziga xos xususiyatiga aylangan hamda vaqt o‘tishi bilan mintaqa ichki sharoitlari va o‘ziga xos siyosiy jarayonlari ta’sirida muayyan mintaqaviy muvozanat tizimini shakllantirgan.Bu holatni quyidagicha umumlashtirish mumkin: Yaqin Sharqda urush, qurolli to‘qnashuvlar va so‘nggi davrlarda terrorizm muammolarni hal etish jarayonida birinchi navbatda qo‘llaniladigan vositalar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Vaholanki, odatda nizolarni hal etishda avvalo tinchlikparvar va diplomatik mexanizmlardan foydalanish, harbiy kuch esa eng so‘nggi chora sifatida qo‘llanilishi lozim. Biroq Yaqin Sharq sharoitida ushbu ketma-ketlik ko‘pincha aksincha tus olmoqda.Shubhasiz, Yaqin Sharq mintaqasida shakllangan o‘ziga xos beqaror va murakkab siyosiy muhitning yuzaga kelishi hamda hozirgi kungacha saqlanib qolishida qurollanish omili muhim o‘rin tutadi. Tarixiy ildizlari uzoq davrlarga borib taqaladigan raqobatdosh davlatlar bugungi kunda ham o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. Ushbu davlatlar hanuzgacha bir-birini siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan raqib sifatida ko‘rib, xavfsizlik dilemmasi (security dilemma) sharoitida qurollanish va mudofaa sanoatini rivojlantirish yo‘lidan bormoqda.

Yaqin Sharqning qurol-yarog‘ savdosining yirik bozoriga aylanishi hamda ikki gegemon kuch — AQSh va SSSRning o‘zaro raqobat maydoniga aylanishi, ayniqsa, Sovuq urush davrida yaqqol namoyon bo‘ldi. Mazkur davrda Yaqin Sharq global qurol-yarog‘ savdosining eng muhim va yirik mintaqalaridan biriga aylandi.

Sovuq urushning yakunlanishi bilan global miqyosda qurollanish poygasining sur’ati pasaygan bo‘lsa-da, bu jarayon Yaqin Sharq uchun to‘liq amal qilmadi. Aksincha, mintaqadagi siyosiy qarama-qarshiliklar, o‘zaro ishonchsizlik, mintaqaviy xavfsizlik muammolari va davlatlarning harbiy salohiyatni kuchaytirishga intilishi qurollanish jarayonining davom etishiga zamin yaratdi.

Mintaqa bo‘ylab qurollanish jarayonining keng tarqalishida davlatlarning siyosiy pozitsiyasi va yondashuvlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqaning ziddiyatli va qarama-qarshiliklarga boy siyosiy muhitida o‘z xavfsizligini

ta’minlashga intilayotgan davlatlar qurollanishni muammolarni hal etishning asosiy vositalaridan biri sifatida qabul qilib, o‘zlarining siyosiy va strategik rejalashtirishida kuchli hamda zamonaviy harbiy salohiyatga ega bo‘lishni ustuvor maqsad sifatida belgilab kelmoqda. Yaqin Sharq mamlakatlarida shakllangan siyosiy beqaror tizimlar va rejimlarning uzoq vaqt davomida saqlanib qolishi, shuningdek, ushbu holat natijasida yuzaga kelayotgan keskinlik va o‘zaro ishonchsizliklar doimiy ravishda zamonaviy qurol-yarog‘lar bilan ta’minlangan qurolli kuchlarning mavjud bo‘lishini taqozo etmoqda.

Mintaqa ichidagi qurollanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki omillar turlicha bo‘lib, ular bir qator siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va xavfsizlik omillarini qamrab oladi. Xususan, etnik nizolar, siyosiy kelishmovchiliklar, davlatlararo adovat va qarama-qarshiliklar, terrorchilik faoliyati, qurol-yarog‘ savdosining iqtisodiy daromad manbalaridan biriga aylanishi, noqonuniy faoliyat, mintaqaning muhim tranzit yo‘llari kesishmasida joylashgani, narkotik moddalar noqonuniy savdosi, ijtimoiy va siyosiy noroziliklar hamda demokratik institutlarda yetarlicha rivojlanmagan siyosiy rejimlar Yaqin Sharqdagi qurollanish jarayonini kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.Mazkur omillarning o‘zaro ta’siri natijasida mintaqada xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoj kuchayib, davlatlar harbiy salohiyatini oshirish va yangi qurol-yarog‘larni xarid qilishga intilmoqda. Bu esa o‘z navbatida xavfsizlik dilemmasini kuchaytirib, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchsizlik va qurollanish poygasining davom etishiga olib kelishi mumkin. Biroq Yaqin Sharq mintaqasida qurollanishga bo‘lgan intilishning eng asosiy omillari davom etib kelayotgan xavfsizlik qarama-qarshiliklari va kuchlar muvozanatidagi nomutanosibliklar bilan bog‘liqdir. Davlatlarning harbiy xarajatlarini oshirishdan ko‘zlagan asosiy maqsadlari turlicha bo‘lishi mumkin. Jumladan, ayrim hollarda bunday siyosat mintaqadagi mavjud nomutanosiblik sharoitida davlatning siyosiy ta’sirini kuchaytirish, mavjud status-kvoni saqlab qolish yoki uni o‘zgartirish, shuningdek, raqiblarga nisbatan mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga

qaratiladi.Shu bilan birga, mintaqadagi qurollanish jarayoni xavfsizlik muammolarini bartaraf etish vositasidan ko‘ra, tobora qurollanish poygasiga aylanib borayotgani kuzatiladi. Bir davlatning harbiy salohiyatini oshirishi boshqa davlatlar tomonidan potensial tahdid sifatida qabul qilinib, ularni ham o‘z mudofaa imkoniyatlarini kengaytirishga undaydi. Natijada o‘zaro ishonchsizlik kuchayib, xavfsizlik dilemmasi yanada chuqurlashadi.

Bugungi kunda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarining mudofaa sanoatini rivojlantirish va harbiy salohiyatini oshirishiga ta’sir ko‘rsatuvchi uchta asosiy omilni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ushbu omillarni, **birinchidan,** so‘nggi davrda yuzaga kelgan inqirozlar bilan bog‘liq ravishda neft va tabiiy gaz narxlarining barqaror ravishda oshib borishi; **ikkinchidan,** oqibatlari va ta’sir doirasi turli jihatlardan baholanishi mumkin bo‘lgan “Arab bahori” jarayonining yuz berishi; **uchinchidan** esa, o‘tmishdan hozirgi kungacha davom etib kelayotgan an’anaviy tahdidlar haqidagi tasavvurlarning yanada yaqqol tus olishi sifatida izohlash mumkin.

Yaqin Sharqdagi qurollanish poygasining muhim tarkibiy qismlaridan biri Isroil davlatining mavjudligi bilan bog‘liq. Ayniqsa, Arab–Isroil urushlaridan keyin og‘ir mag‘lubiyatga uchragan arab davlatlari o‘rtasida qurollanish borasidagi raqobat kuchaydi. Arab davlatlarining qurollanishida G‘arb davlatlarining Isroilga iqtisodiy va harbiy sohalarda ko‘rsatgan yordami asosiy rag‘batlantiruvchi omillardan biri bo‘lgan.Isroilning qurollanishiga esa bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, mamlakatning arab davlatlari bilan o‘ralgan geografik hududda joylashgani, Falastin masalasi sababli mintaqadagi ayrim arab davlatlari tomonidan o‘ziga nisbatan dushmanona munosabat mavjud, degan qarashning shakllangani, terroristik xurujlar hamda mintaqaviy kuch maqomini mustahkamlashga intilish shular jumlasidandir. Bundan tashqari, Eronning yadroviy dasturi va mintaqadagi ta’sir doirasini kengaytirishga qaratilgan siyosati, shuningdek, Hizbulloh, Hamas va “Islomiy jihod” kabi nodavlat qurolli tashkilotlarning faoliyati ham Isroilning harbiy

salohiyatini oshirishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.Isroil tomonidan terroristik tashkilotlar sifatida baholanadigan guruhlarga qarshi AQSh ko‘magida ishlab chiqilgan zamonaviy harbiy qurol-yarog‘ va texnik vositalar, shuningdek, konvensional qurollardan tashqari, kuchli razvedka tarmog‘iga ega bo‘lishi mintaqadagi arab davlatlarini doimiy ravishda hushyor holatda bo‘lishga undab kelmoqda. Tahdid va xavf-xatarlarning kundan-kunga kuchayib borishi mintaqadagi boshqa davlatlarda ham xavotirlarning ortishiga sabab bo‘lgan. Ayniqsa, Isroilning yadroviy qurol ishlab chiqarish imkonini beruvchi texnologik salohiyatga ega ekani mintaqadagi qurollanish raqobatini yanada keskinlashtirgan. Bundan tashqari, Isroilning 1968-yilda qabul qilingan Yadro qurolini tarqatmaslik to‘g‘risidagi shartnomani imzolamaganligi[4] mavjud vaziyatning yanada murakkablashishiga hamda mintaqadagi xavfsizlik muhitining yanada zaiflashishiga olib kelgan omillardan biri sifatida ko‘riladi. Boshqa tomondan, Eronning yadroviy qurol ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyati, Fors ko‘rfazi monarxiyalarining ushbu yo‘nalishga katta miqdorda investitsiya kiritayotgani, shuningdek, Saudiya Arabistonining mudofaa sanoatiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalarni oshirishi mintaqadagi qurollanish raqobati qanday ko‘lamga ega bo‘lib borayotganini yaqqol namoyon etadi. Umuman olganda, yadroviy salohiyat, harbiy texnologiyalarning rivojlanishi va mudofaa sanoatiga investitsiyalarning ortishi Yaqin Sharqdagi qurollanish poygasini kuchaytiruvchi asosiy omillar qatoriga kiradi. Mazkur jarayon davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchsizlikni kuchaytirib, mintaqaviy xavfsizlik muhitining yanada murakkablashishiga zamin yaratadi.

Yaqin Sharqda qurollanish poygasini kuchaytirayotgan davlatlardan yana biri Eron hisoblanadi. G‘arb manbalariga ko‘ra, Yaqin Sharqda yadroviy qurolga ega bo‘lishga intilgan davlatlar qatorida Eron, Liviya, Suriya, Iroq va Jazoir tilga olinadi.

[4] Treaty on the Non-Proliferation of Nuclear Weapons (opened for signature 1 July 1968, entered into force 5 March 1970) // United Nations Treaty Series. – Vol. 729. – No. 10485.

Biroq ushbu davlatlar orasida yadroviy faoliyati sababli eng ko‘p e’tibor qaratilayotgan mamlakat Eron hisoblanadi. Eronda inqilobdan keyin shakllangan islomiy rejim kimyoviy qurollarga ega bo‘lgani hamda yadroviy qurolga ega bo‘lishga intilgani haqida turli da’volar ilgari surilgan. Shu nuqtayi nazardan, Eronning yadroviy qurol ishlab chiqarish texnologiyasiga ega global kuchlar hisoblangan Rossiya va Xitoy bilan yaqinlashuvi hamda diplomatik aloqalarini mustahkamlashga intilishi mazkur da’volarni tasdiqlovchi omil sifatida talqin qilingan.Biroq 2015-yil 14-iyulda Eron va P5+1 davlatlari o‘rtasida erishilgan kelishuv natijasida Eronga nisbatan qo‘llanilgan iqtisodiy sanksiyalarni bekor qilish hamda Eronning yadroviy qurol ishlab chiqarish maqsadidan voz kechishi borasida kelishuvga erishilgan.[5] Mazkur kelishuv Yaqin Sharq davlatlari uchun turlicha siyosiy va xavfsizlik mazmuniga ega bo‘lgan.Fransiya matbuot agentligi — AFP ma’lumotlariga ko‘ra, AQSh va Eron o‘rtasidagi munosabatlarning yumshashi sunniy kuch sifatida ko‘riladigan Saudiya Arabistoni hamda sunniy boshqaruv mavjud bo‘lgan boshqa Fors ko‘rfazi davlatlarini xavotirga solgan. Ushbu davlatlar shia Eroniga nisbatan chuqur shubhalarga ega bo‘lib, Suriya, Yaman va boshqa hududlardagi mojarolarning kuchayishida Eronning roli mavjud, deb hisoblaganlar.Mintaqada yadroviy qurolga ega yagona davlat sifatida tavsiflangan Isroil ham ushbu kelishuvdan noroziligini bildirgan. Isroil Bosh vaziri Binyamin Netanyahu mazkur kelishuvni “tarixiy ko‘lamga ega yomon xato” sifatida baholagan.[6] Turkiya esa, aksincha, kelishuvdan mamnun ekanini bildirgan.Shunday qilib, Eronning yadroviy dasturi va uning atrofidagi xalqaro muzokaralar nafaqat Eronning o‘z xavfsizlik siyosatiga, balki Isroil, Saudiya Arabistoni, Fors ko‘rfazi davlatlari va Turkiyaning mintaqaviy xavfsizlikka doir pozitsiyalariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Natijada Eron yadroviy dasturi Yaqin Sharqdagi kuchlar muvozanati, o‘zaro ishonchsizlik va qurollanish poygasi bilan chambarchas bog‘liq

[5] Joint Comprehensive Plan of Action (Vienna, 14 July 2015); United Nations Security Council Resolution 2231 (2015). – S/RES/2231. – 20 July 2015.

[6] Netanyahu: Iran deal is a “bad mistake of historic proportions” // The Times of Israel. – 2015. – 14 July.

bo‘lgan muhim omillardan biriga aylangan. Xulosa qilib aytganda, Yaqin Sharq mintaqasida yuz berayotgan yangi siyosiy va xavfsizlik jarayonlari davlatlarning qurollanish hamda harbiy salohiyatini mustahkamlashga bo‘lgan intilishini yanada kuchaytirmoqda. Mazkur raqobat jarayonida Isroil va Eron qurollanish va harbiy salohiyatni rivojlantirish borasida yetakchi davlatlar sifatida ajralib turadi.

Yaqin Sharq tarixiy jarayonlar davomida o‘zining strategik geografik joylashuvi bilan doimo alohida ahamiyat kasb etib kelgan, global kuchlarning geosiyosiy manevr maydoniga aylangan va bugungi kunda ham o‘zining strategik ahamiyatini saqlab qolmoqda. Muhim tabiiy resurslarga boy bo‘lgan ushbu mintaqada Usmonli imperiyasi davridan keyingi davrda siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan barqarorlik to‘laqonli qaror topmaganligi kuzatiladi.Xavfsizlik nuqtayi nazaridan nihoyatda zaif va beqaror tuzilishga ega bo‘lgan mintaqada qurollanish poygasining davom etishi mavjud vaziyatni yanada murakkablashtirib, mintaqaviy xavfsizlik muhitining zaiflashishiga olib kelmoqda. Yuqorida qayd etilgan qurollanish raqobatini yuzaga keltiruvchi omillar bilan bir qatorda, mintaqadan tashqari kuchlar va omillarning ta’sirini ham alohida tahlil qilish muhimdir.

Bugungi kunda G‘arb davlatlarining yalpi milliy daromadlarining muayyan qismini ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan texnologik jihatdan ilg‘or qurol-yarog‘larni eksport qilishdan olinadigan daromadlar tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, G‘arb davlatlari qurol-yarog‘ ishlab chiqarish va eksport qilish sohasida o‘zaro raqobatga kirishgan. Mazkur raqobat, ayniqsa, Sovuq urush yillari davomida Yaqin Sharq mintaqasida yaqqol namoyon bo‘lgan. Sovuq urush davrida ushbu raqobatning asosiy ishtirokchilari AQSh va SSSR bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ham shunga o‘xshash tarzda AQSh va Rossiya o‘rtasidagi raqobat kuzatiladi.

Biroq qurol-yarog‘ savdosi oqimining Yaqin Sharq mintaqasiga yo‘naltirilishi mavjud etnik, diniy va identitetga oid ziddiyatlarning yanada chuqurlashib, mintaqadagi beqarorlikni kuchaytirishiga olib kelmoqda. Davlatlar tomonidan xarid qilingan qurol-yarog‘ va harbiy texnikalar muammolarni hal etishda tinchlikparvar

va diplomatik usullardan ko‘ra kuch ishlatishga asoslangan, qisqa muddatli hamda mintaqaviy tinchlik manfaatlari nuqtayi nazaridan yaxlit yondashuvdan mahrum bo‘lgan qarorlar qabul qilinishiga sabab bo‘lgan. Bunday qarorlar, o‘z navbatida, mintaqa aholisi uchun og‘ir va ayanchli oqibatlarni yuzaga keltirgan.Mazkur siyosiy kon’yunktura G‘arb davlatlari uchun o‘zlari ishlab chiqargan qurol-yarog‘larni eksport qilishga qulay sharoit yaratgan. Boshqacha aytganda, mavjud nizolar va ziddiyatlarning yanada keskin bosqichga ko‘tarilishi natijasida mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va ekologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan zaiflashuvi G‘arb davlatlarining qurol-yarog‘ eksportini uzluksiz davom ettirishiga zamin yaratgan. Shu tariqa, mintaqadagi xavfsizlik muammolari va qurollanish ehtiyoji bir tomondan davlatlarning harbiy salohiyatini oshirishga undagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan qurol eksport qiluvchi davlatlar uchun barqaror iqtisodiy va geosiyosiy manfaatlar manbaini shakllantirgan.

Xulosa. Bugungi kunda Yaqin Sharq qurol-yarog‘ savdosi nuqtayi nazaridan katta miqdordagi moliyaviy manfaatlar aylanadigan muhim bozorga aylangan. Shu bilan birga, qonuniy qurol-yarog‘ savdosidan tashqari, mintaqada terroristik guruhlar, giyohvand moddalar savdosi bilan shug‘ullanuvchi jinoiy tarmoqlar hamda qurol-yarog‘ kontrabandachilari tomonidan amalga oshirilayotgan noqonuniy savdo faoliyati ham mazkur bozor ko‘lamining kengayishiga sabab bo‘lmoqda.Mintaqada qurollanish poygasini nazorat qilish va noqonuniy qurollanishning oldini olishga qaratilgan samarali millatlararo yoki davlatlararo mexanizmlarning yetarli darajada mavjud emasligi mavjud vaziyatni yanada murakkablashtirib, muammoni hal etishni qiyinlashtirmoqda. Natijada qonuniy va noqonuniy qurol-yarog‘ savdosining parallel ravishda davom etishi mintaqadagi xavfsizlik muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, qurollanish poygasi va mintaqaviy beqarorlikning o‘zaro bog‘liqligini yanada kuchaytirmoqda.Yaqin Sharq mintaqasining xavfsizlik tuzilmasini tushuntirishda qurollanish muhim parametr hisoblanadi. Mintaqadagi qurollanish mavjud mojarolarning bevosita sababi

bo‘lmasa-da, uning oqibatlari natijasida shakllanadigan keskin va beqaror muhit qaror qabul qiluvchi subyektlarning psixologik hamda sotsiologik tasavvurlari va xavfsizlikka oid qarashlarining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Boshqa tomondan, qurol ishlab chiqaruvchi global davlatlarning mintaqadagi oldindan bashorat qilish qiyin bo‘lgan manfaatlari doirasida qurollanish jarayonini rag‘batlantirishi Yaqin Sharqda tinchlikka bo‘lgan umidlarni tobora susaytirib, mintaqani yanada murakkab ziddiyatlar majmuasiga aylantirmoqda. Xavfsizlik, xavf va tahdid haqidagi tasavvurlar asosida shakllanadigan harbiy mexanizmlar keyingi bosqichlarda bir vaqtning o‘zida tormozlovchi (deterent) va provokatsion omilga aylanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, yuzaga kelayotgan qurollanish raqobati mintaqaning zaif va beqaror tuzilmasini yanada chuqurlashtirib, uning siyosiy, iqtisodiy, harbiy va ekologik xavfsizligini yanada zaiflashtirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Buzan B., Wæver O. Regions and Powers: The Structure of International Security. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 564 p.
2. Herz J. H. Idealist Internationalism and the Security Dilemma // World Politics. – 1950. – Vol. 2, No. 2. – P. 157–180.
3. Jervis R. Cooperation Under the Security Dilemma // World Politics. – 1978. – Vol. 30, No. 2. – P. 167–214.
4. Krause K. Arms and the State: Patterns of Military Production and Trade. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992. – 278 p.
5. Pierre A. J. The Global Politics of Arms Sales. – Princeton: Princeton University Press, 1982. – 352 p.
6. Walt S. M. The Origins of Alliances. – Ithaca: Cornell University Press, 1987. – 321 p.
7. Perlo-Freeman S., Solmirano C. Trends in World Military Expenditure, 2013 // SIPRI Fact Sheet. – Stockholm: SIPRI, April 2014. – URL: https://www.sipri.org/sites/default/files/files/FS/SIPRIFS1404.pdf